

ehtiyojlariga mos kadrlarni tayyorlash uchun budgetdan moliyalash va ishlab chiqarish jarayonlariga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish uchun malaka oshirish dasturlarini amalga oshirish, hamda real sektor va budget-soliq tizimini birlashtiruvchi strategiyalar va dasturlarni tuzish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash bilan birga, ijtimoiy va ekologik masalalarni e'tiborga olish asosiy vazifalardan bo'lib hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Samuelson, P.A., & Nordhaus, W.D. (2010). "Economics" (19th ed.). McGraw-Hill Education. Iqtisodning asosiy tamoyillari va budget-soliq tizimining iqtisodiy faoliyatga ta'siri.
2. Mankiw, N. G. (2021). "Principles of Economics" (9th ed.). Cengage Learning.
3. World Bank. (2024). Doing Business Report. World Bank Group.
4. OECD. (2022). OECD Economic Surveys: [Country]. OECD Publishing.
5. IMF. (2023). World Economic Outlook: Countering the Cost-of-Living Crisis. International Monetary Fund.
6. OECD. (2023). Tax Policy Reform: OECD Tax Policy Studies. OECD Publishing.
7. Shirley, M.M., & Xu, L.C. (2021). "The Role of the State in Industrial Development: Evidence from the East Asian Experience." Journal of Development Economics, 145, 102431.

## **O'ZBEKISTONDA AHOLINING MOLIYAVIY SAVODXONLIK DARAJASINI OSHIRISHGA QARATILGAN INNOVATSION YECHIMLAR**

***Ibodullayev Navro'zbek-***

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari  
fakulteti Statistika yo'naliishi 2-bosqich talabasi*

Yurtimiz O'zbekiston rivojlanayotgan davlatlar qatoridan rivojlangan davlatlar safiga qo'shilishi uchun iqtisodiyotimizga yangi g'oyalari, innovatsiyalar va islohotlar qo'llanib kelinmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotini yana ham shaffof, sog'lom va barqaror iqtisodiyot tomon intilishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan masala borki, bu moliyaviy savodxonlikdir.

Moliyaviy savodxonlik - shaxsiy moliyaviy, budgetlashtirish(kirim-chiqim) va investitsiyalarni o'z ichiga olgan turli xil moliyaviy ko'nikmalarini tushunish va samarali ishlash qobiliyatidir.<sup>233</sup> Moliyaviy savodxonlik zamonaviy iqtisodiyotda har bir inson bilishi zarur bo'lgan asosiy bilim va ko'nikmalaridan biri hisoblanadi. Jahondagi rivojlangan davlatlar tajribasi bizga shuni ko'rsatmoqdaki, aholining moliyaviy savodxonlik darjasini oshgan sari iqtisodiy barqarorlik mustahkamlanadi, tadbirkorlik rivojlanadi va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy

<sup>233</sup> <https://www.spot.uz/oz/2022/07/24/financial-literacy/>

farovonligi oshadi. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda moliyaviy bilimlarni targ'ib qilish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda, shuningdek, zamonaviy innovatsion yondashuvlarni joriy etish ham ustuvor vazifa sifatida qo'yilgan. Yurtimizda istiqomat qiluvchi har bir fuqaroning moliyaviy savodxonlik darajasini innovatsion loyihalar, g'oyalar bilan oshirishimiz uchun asosiy bir nechta yo'nalishlar rivojlantirilishimiz lozim.

Birinchi navbatda, raqamli texnologiyalardan keng foydalanish moliyaviy bilimlarni keng ommaga yetkazishda muhim rol o'ynaydi. Xalqaro tajribada, xususan, AQSh, Buyuk Britaniya va Singapur kabi davlatlarda moliyaviy ma'lumotlarni yetkazish uchun maxsus mobil ilovalar ishlab chiqilgan bo'lib, ular foydalanuvchilarga shaxsiy budgetni yuritish, kreditlar va investitsiyalar bo'yicha tavsiyalar berish imkonini beradi. Bu tajribadan kelib chiqib, yurtimizda ham maxsus platforma ishlab chiqildi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Finlit.uz" deb nomlanuvchi moliyaviy savodxonlik bo'yicha axborot-ta'lim veb-sayti tuzilgan bo'lib, moliya va iqtisodiyot sohasidagi asosiy bilimlarni o'qitish uchun mo'ljallangan. Veb-saytning asosiy maqsadi ham moliyaviy savodxonlik darajasini yuqorilash va insonlarning moliyaviy xulq-atvorini shakllantirish hisoblanadi. Har bir foydalanuvchi o'zi qiziqqan mavzu bo'yicha tegishli ma'lumotlarni topa oladi. Ma'lumotlar turli shakllarda taqdim etiladi: maqlolar, videolar, ekspertlar fikri, tez-tez beriladigan savollarga javoblar va infografika. Shuningdek, "Finlit.uz" sayti depozit va kredit kalkulyatorlari, so'rovnomalar va anketalar kabi interaktiv xizmatlarni ham taqdim etadi.<sup>234</sup>

Ikkinchidan, ta'lim tizimiga moliyaviy savodxonlik fanlarini joriy qilish ham ustuvor yo'nalishlardan biridir. Bugungi kunda jahonning ko'plab mamlakatlarda maktab va oliy ta'lim dasturlariga moliyaviy savodxonlik bo'yicha maxsus kurslar kiritilgan bo'lib, bu yoshlarning kelajakdagi iqtisodiy qarorlarini ongli ravishda qabul qilishlariga keng zamin yaratmoqda. O'zbekistonda ham maktab, kollej va universitetlarda moliyaviy ta'limni maxsus qo'shimcha kurs sifatida kiritish va zamonaviy interaktiv o'quv materiallari yordamida o'qitish o'sib kelayotgan yosh avlod uchun foydali va yaxshi samara beradi. Ayniqsa, yoshlar o'rtasida tadbirkorlik va investitsiya madaniyatini shakllantirish orqali ularning bozor iqtisodiyoti sharoitida samarali faoliyat yuritishlari ta'minlanadi.

Uchinchidan, moliyaviy savodxonlikni oshirish jarayonida ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarning rolini oshirish ham muhim omillardan biridir. Hozirgi vaqtida aholining katta qismi ma'lumot va axborotni internet orqali qabul qilmoqda, shu sababli moliyaviy bilimlarni keng targ'ib qilishda ijtimoiy tarmoqlar, video darslar va interaktiv kurslar muhim vosita bo'lishi mumkin. Youtube kanallari, telegram va instagram sahifalarida moliyaviy maslahatlar, soliq tizimi bo'yicha tushuntirishlar va budgetni to'g'ri yuritish bo'yicha ko'rsatmalar berilishi aholining keng qatlamlari uchun qulay va tushunarli manba bo'lib xizmat qiladi. Yuqorida biz aytib o'tgan "Finlit.uz" veb-saytining ijtimoiy tarmoqlarda ham sahifalari mavjud, ammo biz faqat yagona

<sup>234</sup> <https://finlit.uz/uz/>

resurs bilan cheklanib qolmasdan, ularning sonini ko'paytirib keng foydalanuvchilar auditoriyasini jalg qilishimiz lozim.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish uchun zamonaviy innovatsion yechimlar imkon qadar tezroq va intensiv usulda joriy etilishimiz zarur. Raqamli texnologiyalar, ta'lif tizimi islohotlari, davlat-xususiy hamkorlikning kuchayishi bu jarayonda muhim omillar sifatida xizmat qiladi. Moliyaviy savodxonlik darajasining oshishi aholi turmush darajasining yuksalishi, tadbirkorlik muhitining rivojlanishi, umuman iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga va eng asosiysi, yurtimizni rivojlangan davlatlar safiga qo'shilishida muhim kalit bo'lib xizmat qiladi.

## **MOLIYAVIY HUQUQLARNI TA'MINLASHDA JAMIyatNING ROLINI KUCHAYTIRISH**

*Toyirov Shohboz Ziyodullo o'g'li  
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti  
assistenti*  
*Jo'rayeva Parizod Ravshan qizi  
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti  
talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jamiyatning moliyaviy huquqlarni ta'minlashdagi roli o'r ganiladi. Moliyaviy huquqlarni himoya qilish va bu huquqlarga asoslangan moliyaviy imkoniyatlardan foydalanishni ta'minlash jamiyatning barcha qatlamlari uchun muhimdir. Tadqiqotda fuqarolik jamiyati, davlat va moliyaviy institutlar o'rtasidagi hamkorlik, shuningdek, aholining moliyaviy savodxonligini oshirishda jamiyatning ishtiroki yoritilgan. Statistik ma'lumotlar va amaliy misollar orqali moliyaviy huquqlarni ta'minlashda samarali choralar va yondashuvlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Moliyaviy huquqlar, jamiyat, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy tenglik, moliyaviy savodxonlik, moliyaviy xizmatlar, moliyaviy tizim, bank xizmatlari, kredit, investitsiya.

**Аннотация:** В данной статье исследуется роль общества в обеспечении финансовых прав. Защита финансовых прав и обеспечение доступа к финансовым возможностям, основанным на этих правах, имеет важное значение для всех слоев общества. В исследовании освещено сотрудничество между гражданским обществом, государством и финансовыми институтами, а также участие общества в повышении финансовой грамотности населения. Через статистические данные и практические примеры рассматриваются эффективные меры и подходы к обеспечению финансовых прав.

**Ключевые слова:** Финансовые права, общество, гражданское общество, социальное равенство, финансовая грамотность, финансовые услуги, финансовая система, банковские услуги, кредиты, инвестиции.